



**JEYN OSTINNING “ANDISHA VA G‘URUR” ROMANINING
O‘ZBEKCHA TARJIMASIDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLARI
TAHLILI**

Mirzo Ulug‘bek
nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti
Fizika fakulteti fizika
yo‘nalishi 3- bosqich
talabasi Tohirova
Rumayso Furqat qizi
[miraculossakura@gmail](mailto:miraculossakura@gmail.com)
[l.com](mailto:miraculossakura@gmail.com)

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada klassik ingliz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romanining asosiy g‘oyalari, tarjimasidagi yutuq va kamchiliklar, shu bilan bir qatorda bugungi kundagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi.*

KALIT SO‘ZLAR: *Janob Gardiner, Gardiner xonim, Bingli, Jeyn, Darsi, Elizabet, Lidiya Bennet, “grace” (gratsiya), “elegance” (mukammallik), “modesty” (kamtarlik).*

KIRISH. Dunyo adabiyotida ingliz yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlar o‘zining nafisligi va jozibasi bilan ajralib turadi. Bu asarlarni o‘qir ekasiz inglizlarga xos lutf, mardlik va shijoatni guvohi bo‘lasiz. Ayniqsa Angilya tarixiga bag‘ishlangan asarlarga qiziqish mudom yuqori bo‘lgan. Mashxur ingliz yozuvchisi Jeyn Ostin qalamiga mansub “Andisha va g‘urur” romani ana shunday romanlar qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI. Asar ikkita asosiy qismga bo‘linadi: birinchisi, qahramonlarning o‘zaro munosabatlaridagi



murakkabliklarni ko'rsatadi; ikkinchisi esa bu munosabatlarning rivojlanishi va yakuniga bag'ishlanadi. Romanda Janob Gardiner, Gardiner xonim, Bingli, Jeyn, Darsi, Elizabet, Lidiya Bennet kabi qaxramonlar mavjud. Roman asosan ayol obrazlarini ichki kechinmalari, ruhiyatini ochib berishga qaratilgan. Masalan, Elizabetning aqlli, fikrlashga qodir va o'z qarorlarini mustaqil qabul qiladigan qahramon sifatida tasviri, ayollarning aqli va qaror qabul qilish huquqiga nisbatan jamiyatdagi munosabatni aks ettiradi. Romandagi boshqa ayol qahramonlar, masalan, Jeyn Bennet yoki Lidia Bennet, turli ijtimoiy xulq-atvorlarni va shaxsiy qarorlarni namoyon qiladi, bu esa ayollarning turli ijtimoiy va shaxsiy imkoniyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Ushbu asar XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi Angliya ijtimoiy hayotini aks ettirishi ham bejiz emas. Ushbu davrda sinfiy tafovutlar keskin bo'lgan, ayniqsa, ayollar uchun oila qurish ijtimoiy mavqeini belgilovchi asosiy omil edi. Muallif o'z asarida jamiyatdagi ushbu stereotiplarni tanqid qiladi. Masalan, Bennet oilasining qizlari, ayniqsa, Lidiya Bennetning qilmishlari orqali Ostin oilaviy qadriyatlarning buzilishi xavfini ko'rsatadi. Elizabet Bennet va janob Darsi munosabatlari asarning asosiy harakatlantiruvchi nuqtasi hisoblanadi. Dastlabki qarashlaridan boshlab o'zaro tushunmovchilik va stereotiplarni yengib o'tish jarayoni o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Janob Darsining g'ururi va Elizabetning andishasi asar boshida to'qnashuvlarga sabab bo'ladi, lekin ularning o'zgarishlari syujetning eng muhim qismidir. Elizabet Bennet va janob Darsi obrazi inson psixologiyasining turli qirralarini aks ettiradi. Misol uchun, Elizabetning o'z nuqtai nazarini himoya qilishga bo'lgan intilishi va Darsining o'z kamchiliklarini anglashga tayyorligi asarning realistik va samimiyligini oshiradi. Darsi qahramon sifatida o'zining boshida an'anaviy patriarxal qadriyatlarga amal qiladi, ammo Elizabet bilan munosabatlar orqali o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqadi. Bu qahramonlarning o'zaro munosabati jamiyat va shaxsiy qarashlar o'zgarishini namoyon qiladi.



Asar o'zbek tiliga Muhabbat Ismoilova tomonidan tarjima qilingan va 2019 yilda nashr etilgan. Tarjima borasida so'z ketganda ayrim jihatlarni ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Birinchidan asar ingliz tilidan emas, rus tilidan tarjima qilingan. Bu esa inglizdan rus muhitiga o'tib keyin o'zbek muhitiga moslashtirishga olib keladi. Oqibatda asl tarjima ruhi bir qadar zaiflashgandek bo'ladi. Agar sof ingliz tilidan tarjima qilinganda sof ingliz muhiti va ruhiyatini saqlab qolish mumkin bo'lar edi. Ikkinchidan asar tilida o'ta rasmiylikka urg'u berilganiga guvoh bo'lamiz. Janob Gardiner va Gardiner xonim o'rtasidagi suhbatda bir biriga rasmiy munosabatda bo'lishi erish tuyiladi. Qolaversa bu asarning jimjimador tarjimada kitobxon qo'liga yetib borishiga olib keladi.

Ingliz tilidagi original asarda Lizzi Bennetning tilidan foydalanish – o'zini ifodalashning, jamiyatdagi o'rnini tan olishning va boshqalar bilan muloqot qilishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning nutqi odatda qisqa, aniq va ba'zan iroda bilan to'ldirilgan. Lizzi o'z fikrlarini ochiq-oydin bayon qiladi, bu esa uning mustaqilligi va jamiyatga qarshi kurashayotgan ayol obrazini ta'kidlaydi. Ingliz tilidagi original matnda, ayol obrazining nutqidagi iroda va qat'iyat shunday ko'rsatilgan ki, bu, birinchi navbatda, jamiyatning ayolga bo'lgan qarashlari bilan ziddiyatga kiradi.

O'zbek tiliga tarjimasi jarayonida, tarjimonlar ko'pincha madaniy kontekstga moslashishga harakat qiladilar. O'zbek tilida ayol obrazining lingvistik ifodasi ba'zan boshqa ijtimoiy qiyoslarni, o'zbek ayolining o'rnini va turmush tarzini aks ettiradi. Shuning uchun ba'zi nutq frazalari va iboralar tarjimaga kiritilishida ijtimoiy va madaniy tafovutlar ko'rinadi. Masalan, ingliz tilida *"I am not a romantic, you know"* deb aytgan Lizzi, o'z fikrini anglash va mustahkamlashda iroda ko'rsatadi. O'zbek tilidagi tarjimasi esa ba'zan biroz yumshoqroq bo'ladi, chunki o'zbek madaniyatida bunday bevosita chiqishlar kamroq uchraydi, va bu boshqa tarzda ifodalanadi va tarjimada *"Siz bilasizki men hissiyotga beriluvchan emasman"* tarzida tarjima qilinadi.



Tarjimada shuningdek, leksik o'zgarishlar mavjud bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi *"I don't care about society's expectations"* iborasi o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilganda *"Men jamiyatning kutganidan qiziqmayman"* shaklida bo'ladi. Lekin buni "Jamiyatning talablari bilan ishim yo'q" degan jumla bilan ifodalanishi ayni muddao bo'lgan. bu o'z o'rnida ayolning mustaqillik va ijtimoiy normlarga bo'lgan qarshiligini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi tarjimalarda ayol obrazining ifodalanishi madaniyatlararo tafovutlar bilan bevosita bog'liq. Tarjima jarayonida, tarjimonning madaniy moslashuvlar qilish zarurati tug'iladi. Ingliz tilidagi *"She is not the type to settle down quickly"* (U tezda bir joyga muqim o'rinishib, tinch yashab ketadigan qiz emas) iborasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda, madaniy kontekstda bu iborani yumshatish va o'zbek ayolining oilaviy hayotga nisbatan munosabatini aks ettiruvchi ifodalar qo'llanadi. Shuningdek, Lizzi ning o'z fikrlarini ifodalashda jamiyatning ayolga qo'llagan bosimi o'zbek tilida ko'proq yumshatilgan va ijtimoiy holatga moslashgan.

Ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik farqlar ayol obrazining tarjimalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ingliz tilida ko'pincha *"grace"* (gratsiya), *"elegance"* (mukammallik), *"modesty"* (kamtarlik) kabi so'zlar ishlatilsa, o'zbek tilida esa, masalan, *"xushmuomala"*, *"saxiy"*, *"qadriyatga ega"* kabi so'zlar tilga olinadi. O'zbek tilida tarjimadagi ifodalar ko'proq milliy qadriyatlar va tilning adabiyati bilan uyg'unlashadi. Ingliz tilida ayol obrazining tilida qisqa va to'g'ri gaplar keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida ko'proq uzoq va murakkab jumlar ishlatiladi. O'zbek tilida asarda ba'zan ayol obrazining ichki dunyosini ifodalash uchun ko'proq ma'rifiy va tasvirlovchi gaplar ishlatiladi. Ingliz tilida ko'proq salobatli va rasmiy tildan foydalanilgan bo'lsa, o'zbek tilida asar tarjimasida ko'proq samimiylilik va ijtimoiy ziddiyatlar aks ettirilgan. O'zbek tilida ayol obrazining hissiyotlari ko'pincha aniqroq va batafsil tasvirlanadi, bu esa tarjima matnining tashqi ko'rinishida o'zgarishlarga olib keladi.



Ingliz tilidagi asarda, ayollar obrazlari ko‘pincha nozik, muloyim va madaniyatli deb tasvirlanadi. Ular o‘zlarining ruhiy holatlarini, tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini har xil leksik va sintaktik vositalar yordamida ifodalaydi. Asar tilining xususiyati — sodda va aniq bo‘lib, personajlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini aks ettirishga qaratilgan. Ayollar tilida muloyimlik, ifoda va ehtiyotkorlik ko‘proq uchraydi. O‘zbek tilidagi tarjimalarda esa bu obraza ko‘proq milliy va madaniy xususiyatlar bilan boyitilgan. Tarjima jarayonida o‘zbek madaniyati va tilining o‘ziga xos elementlari kiritiladi, bu esa ba’zan asar matnining tiliga o‘zgartirishlar kiritilishiga olib keladi. O‘zbek tarjimalarida ayol obrazining ifodalanishi ko‘proq o‘zbek milliy urf-odatlar va qadriyatlariga moslashtirilgan, bu esa tarjimaning ta’sirchanligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir xorijiy asar tarjimasida o’sha davr ijtimoiy muhiti va tabiiyligini saqlab qolish bilan bir qatorda tarjima qilinayotgan tilning ijtimoiy me’yorlari madaniy -ahloqiy jihatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austen, J. (1813). *Pride and Prejudice*. London: T. Egerton
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. I.A –Д / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Ж.Шукрона – Ҳ / 591 б.
3. Xayrulla Hamidov, & Marxabo Abdullayeva. (2024). Frazelogizmlarning o‘zbekcha muqobil variantlari va funksional xususiyatlari. *Konferensiyalar | Conferences*, 1(8), 14–21.
4. Abdullayeva, M. R. Ingliz va o ‘zbek tillatirida semantik tarjima ma’nosini berish. *Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi*–2/2022, 314-316.



5. Shirin Alisherovna Hamrabayeva. Maqollar tarjimasida xalq va millat tajribasini aks ettirilishi. Ilm sarchashmalari ilmiy- nazariy, metodik jurnal. 2024/3,